

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 234 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему	24
С.С. Исмаилов	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir	45
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish.....	49
Idirisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarini.....	53
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики	61
Вохидова Мехри Хасановна	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран	69
Буранова Лола Вахобовна	
Мамлакатimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
Babamatov Tolib Xakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций.....	116
Умида Юлдашева	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari	138
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
Jumanazarova Z.K.	
Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri	154
Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich	
Oliygochlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari	158
Adizov Sanjar Rashidovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish	165
Xoliyrov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyrova Shoxista Qahramon qizi	
Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме.....	174
Касимова Зилова Гуламиддиновна	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantirish	182
Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li	
Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане	186
Шахзод Сайдуллаев	
Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish	192
Ahmedov Komron Muhammadaliyevich	
Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	196
Quyjanov Xurshid Abdullayevich	
Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari	200
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati	206
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
Анализ международного опыта в сфере тепличного овощеводства	214
Нурутдинова Зухра Алишеровна	
Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarining mohiyati	220
Madaminova Sanobar Askarovna	
Hududning iqtisodiy o'sishini "yashil" iqtisodiyot asosida shakllantirishning nazariy asoslari	226
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li	
Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyati tahlili.....	230
Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi	



HUDUDDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARINING MOHIYATI

Madaminova Sanobar Askarovna

Nukus innovatsion instituti

“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrası assistent o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm xizmatlarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va iqtisodiy ahamiyati yoritilgan. Xususan, turizm sohasini rivojlantirishning xorijiy tajribasi mohiyati o'rganilgan. Shuningdek, muallif tomonidan turizm sohasining COVID-19 jahon global pandemiyasidan keyingi holati qiyosiy tahlil qilingan va xorijiy mamlakatlar turizm industriyasi tajribalaridan Qoraqalpog'istonda foydalanish yo'nalishlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: turizm, Butunjahon turizm tashkiloti, sohani rivojlantirish, turizm xizmatlari, COVID-19 pandemiyasi, YaIM, turizmdan olinadigan daromad.

Abstract: This article describes the role and economic importance of tourism services in the economic development of the country. In particular, the essence of the foreign experience of the development of the tourism sector was studied. The author also made a comparative analysis of the state of the tourism industry after the global pandemic of COVID-19, and suggested ways to use the experiences of the tourism industry of foreign countries in Karakalpakstan.

Key words: tourism, World Tourism Organization, industry development, tourism services, COVID-19 pandemic, GDP, income from tourism.

Аннотация: В данной статье освещена роль и экономическое значение туристических услуг в экономическом развитии страны. В частности, изучена сущность зарубежного опыта развития туристической сферы. Также автором проведен сравнительный анализ состояния туристической отрасли после глобальной пандемии COVID-19, а также предложены пути использования опыта туристической отрасли зарубежных стран в Каракалпакстане.

Ключевые слова: туризм, Всемирная туристская организация, развитие отрасли, туристические услуги, пандемия COVID-19, ВВП, доходы от туризма.

KIRISH

Ma'lumki turizm – bu iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatlarni o'zida mujassam etgan ko'p qirrali hodisa bo'lib, u doimiy taraqqiyot uchun salmoqli salohiyatga ega. U iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlari bilan chambarchas aloqada bo'lib, mamlakatlar va xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida uning yetakchi o'rnini oldindan belgilab beradi. Turizm sohasining jadal rivojlanishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham multiplikativ ta'sir ko'rsatadi, bunda investitsion faollik kuchaytiriladi va mablag'lar aylanmasi tezlashadi. Turizmni iqtisodiy rivojlanishning jozibador variantiga aylantiruvchi bir qancha xususiyatlar mavjud bo'lib, asosiysi uning ish o'rinlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash hamda bandlikni oshirish salohiyatidir.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.04.2023-yil “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-135-son¹ qaroriga asosan 2023-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaharlarida turizmni rivojlantirishning maqsadli yo'nalishlari belgilangan edi. Unga ko'ra, 2023-yilda xorijiy sayyohlar tashrifini respublikamiz bo'yicha 10 ming kishiga, mahalliy sayyohlar tashrifini 20 ming kishiga yetkazildi, shu bilan birga, turoperator va turagentlar soni 115 ga oshirish rejalashtirildi. Shu jumladan, xorijiy sayyohlar tashrifini Qoraqalpog'iston Respublikasida 112 ming kishiga, mahalliy sayyohlar tashrifini esa 1044

1 lex.uz/docs/-6456786



ming kishiga yetkazildi, shuningdek, turoperatorlar va turagentlar soni 2 baravarga oshirilishi hududda turizm inforatuzilmalari jadal kengayib borayotganini ko'rsatadi[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yu.A. Vedenin tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, Xalqaro miqyosdagi turistik loyihalarga Kaliforniya shtati Napa vodiysidagi vino turizmi klasterini, Avstraliyaning Kvinslend shtatidagi ekoturistik klasterini, Meksikadagi Kankun oromgohi klasterini, Indoneziyadagi Bali oroli klasterlarini misol qilib keltiradi. Turistik zonalarda davlat va tadbirkorlik subyektlari o'zaro mustahkam integratsiyalashuv jarayoniga kirishadi. Xususi sektor vakillari va xorijlik investorlarga zaruriy imtiyozlar yaratiladi.

Jahon tajribasida mintaqalarni rivojlantirish strategiyasining shakllanishi uzoq muddatli maqsadli yo'nalishlarni ham vertikal tarzda (alohida hududlar, viloyatlar, mamlakatlar), ham gorizonta tarzda (alohida olingan sohalar va iqtisodiyot tarmoqlari) o'zaro bog'lanishini ko'zda tutadi. Bunday sharoitda tadbirkorlik subyektlari va mahalliy hamjamiyatlarning manfaatlarini ham hisobga olish zarur.

T.M. Axmedov, A.M. Sodiqov, Sh. Nazarov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida xorijiy mamlakatlarda mintaqalar rivojlanishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlari atroficha o'rganilgan. O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda mintaqalarning rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlaridan foydalanishni nisbiy baholash A.M. Sodiqovning ilmiy ishlarida turizmni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari Finlandiya, Turkiya va Kanada mamlakatlari misolida ko'rsatib berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishni o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Agar BMT Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) tomonidan 2024-yil 21-mayda e'lon qilingan hisobotida keltirilgan ma'lumotlarga nazar soladigan bo'lsak, 2023-yil oxiriga xalqaro turizmdan tushgan daromad 1,5 trillion dollarga yetgan. Vaholanki, turizm sohasi COVID-19 pandemiyasi tufayli cheklovlar joriy etilgunga qadar, ya'ni 2019-yil darajasiga to'liq tiklangan. Inflyatsiyani hisobga olgan holda tiklanish, hattoki, 97 foizni tashkil etgan. Quyida 1-jadvalda buning yaqqol ifodasini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval. Mintaqalar bo'yicha xalqaro turistlar soni, (mln so'mda)

Mintaqalar / Yillar	2019	2020	2021	2022	2023	2023 (%)
Dunyo bo'yicha	1465	406	459	975	1300	100
Rivojlangan iqtisodiyotlar	776	221	240	546	718	55.3
Rivojlanayotgan iqtisodiyotlar	689	186	219	429	582	44.7
Yevropa	742.4	239.4	300.9	609.5	709.4	54.6
Osiyo va Tinch okeani	362.7	58.9	26.6	93.3	237.2	18.2
Amerika	219.3	69.7	81.8	157.2	200.2	15.4
Afrika	69.0	18.8	19.9	47.0	66.3	5.1
Yaqin Sharq	71.3	19.4	30.2	67.8	87.0	6.7

Qayd etilishicha, Yevropada 2023-yilda xalqaro turizmdan eng yuqori daromad olingan – 660 milliard dollar, bu real ko'rsatkichlarda 2019-yilga nisbatan 7 foizga ko'pdir. Yaqin Sharqda daromad 33 foizga oshgan. Amerika 2023-yilda pandemiyadan oldingi daromadining 96 foizini, Afrika – taxminan 95 foizini, Osiyo-Tinch



okeani mintaqasi – taxminan 78 foizini tiklagan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, shuningdek, turizm yalpi ichki mahsuloti 2023-yilda COVID-19 dan oldingi darajaga qaytgani va 3,3 trillion dollarni tashkil etgani, bu esa jahon yalpi ichki mahsulotining taxminan 3 foizini tashkil etgani ta'kidlanmoqda.

Xususan, 2023-yilda Fransiya 100 million xalqaro sayyohni qabul qilib, dunyodagi eng ko'p tashrif buyuradigan joy sifatida o'z mavqeyini mustahkamladi. Ikkinchi o'rinni 85 million sayyoh bilan Ispaniya, uchinchi o'rinni AQSh (66 million), Italiya (57 million) va Turkiya 55 million xorijiy sayyoh bilan yakunladi.

Xalqaro turizmdan tushgan daromad bo'yicha reytingda 2023-yilda 176 milliard dollar daromad olgan AQSh yetakchilik qilmoqda. Ispaniya (92 milliard dollar), Buyuk Britaniya (74 milliard dollar), Fransiya (69 milliard dollar) va Italiya (56 milliard dollar) mamlakatlari ham keyingi o'rinlarda yetakchilikni qo'lga kiritgan.

Qayd etilishicha, 2024-yil boshiga kelib ayrim hududlarda, ayniqsa, sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Bular Serbiya (plyus 127%), Turkiya (plyus 82%), Pokiston (plyus 72%), Tanzaniya (plyus 62%), Portugaliya (plyus 61%), Ruminiya (plyus 57%), Yaponiya (plyus 53%), Mo'g'uliston (plyus 50%), Mavrikiy (plyus 46%) va Marokash (plyus 44%) davlatlaridir..

Jahon tajribasi ishonchli tarzda shuni isbotlaydiki, ya'ni turizm industriyasining rivojlanishi, 20-asr o'rtalaridan boshlab nisbatan qisqa tarixiy vaqt ichida muhim iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishish imkonini berdi. Qolaversa, xorijiy sayyohlardan olinadigan daromadlar hisobiga turizm sohasining jadal yuksalishi madaniy-tarixiy qadriyatlarni asrab-avaylash, atrof-muhit va boshqa ijtimoiy qadriyatlarni muhofaza qilish va tiklashga xizmat qilmoqda. Bunday baholar bir qator davlatlar amaliyotida to'liq tasdiqlanadi. Dunyoning turistik markazlari sifatida tasniflangan davlatlar, jumladan, Misr, Tunis, Malayziya, Tailand, iqtisodiy rivojlanishning nisbatan past darajasiga qaramay, turizm sohasini rivojlantirishda yuqori darajaga erishmoqda.

Bu, asosan, davlatning turizm industriyasini qo'llab-quvvatlash, turizm xizmatlari ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi yirik, kichik va o'rta milliy biznesni rag'batlantirishga qaratilgan maqsadli siyosati tufayli ro'y bergan. Ushbu siyosat mamlakatlarning bir qator omillari tufayli ega bo'lgan yuqori raqobatdosh ustunliklarini hisobga olishga asoslangan edi, jumladan:

- qator qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga egaligi;
- jahon ahamiyatiga ega noyob tarixiy va madaniy yodgorliklarning mavjudligi;
- Muqaddas Bitikning beshta amri - Qur'onga taalluqli bo'lgan musulmonlar ziyoratgohlari to'planishi;
- sezilarli miqdorda ortiqcha arzon ishchi kuchi mavjudligi;
- uzoq dengiz qirg'oq chizig'i va uchta qit'ani – Osiyo, Afrika va Yevropani bog'laydigan dengiz va havo aloqalarining kesishishi bilan tavsiflangan qulay geografik joylashuv;
- dam olish va turli xil oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun qulay ekologik toza hududlarning mavjudligi.

Yana bir muhim tajriba bu – Malayziya iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va uning eksportga qaramligini kamaytirish maqsadida hukumat Malayziyada turizmni oshirishga harakat qilganligidir. Bunda turizm Malayziyaning ikkinchi yirik valyuta daromad manbayiga aylanishiga xizmat qildi. 2022-yilda turizm Malayziyaning umumiy yalpi ichki mahsulotiga 14 foiz hissa qo'shgan. Lekin Malayziyada turizm industriyasi shakllanishining boshida turizmni rivojlantirish milliy strategiyasining amalga oshirilishi va amalga oshirilishini monitoring qilish funksiyasi Turizmni rivojlantirish Vazirlar Mahkamasi huzuridagi maxsus qo'mita zimmasiga yuklatilgan edi, bunda mamlakat Bosh vaziri o'zi raislik qilgan. Mazkur qo'mitada har chorakda muntazam ravishda yig'ilib, turizmga oid turli masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilingan. Keyinchalik 1989-yilda u Malayziya Turizm vazirligiga aylantirildi [2].

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda mamlakatda turizmni rivojlantirish va muvofiqlashtirishni boshqaradigan asosiy davlat organi Turizm va Madaniyat vazirligi hisoblanadi. Vazirlik vakili bo'lgan hukumat Malayziyani Osiyoda jahon turizm markaziga aylantirish uchun bir qator muhim qadamlarni qo'ydi.

Bularga quyidagilar kiradi:

- 120 dan ortiq davlat fuqarolariga Malayziyaga 2 haftadan 1 oygacha vizasiz borish imkonini beruvchi viza rejimini soddalashtirish, ayrim davlatlar uchun esa vizasiz qolish muddati 3 oy va undan ortiq muddatga uzaytirildi;
- yangi qurilgan mehmonxonalar faoliyatining dastlabki 5 yilida barcha turdagi soliqlardan ozod qilinadi;
- mehmondo'stlikni yaxshilash, ya'ni turizm sohasida ishlovchi xodimlar maxsus tayyorgarlikdan o'tishi va mehmondo'stlik ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak, bu esa ularga Malayziyaga kelayotgan xorijiy sayyohlar bilan mehr-oqibatli muloqot qilish imkonini beradi. Ta'kidlash joizki, Malayziya Turizm va Madaniyat vazirligi turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqadi va qabul qiladi, xuddi shu o'rinda Malayziya Milliy turizm kompaniyasi esa mehmonxona sektorida, restoran biznesi va turistik xizmatlarning boshqa tarmoqlari, transport xizmatlari sohasida sifat nazorati bo'yicha bosh inspektor rolini o'ynaydi.

Malayziya bir paytlar sayyohlar kelishi bo'yicha dunyoda 9-o'rinni egallagan [3]. 2017-yilda Sayohat va turizm raqobatbardoshligi hisoboti Malayziyani Sayohat va Turizm raqobatbardoshlik indeksi (Travel & Tourism Competitiveness Index, TTCI) yordamida 141 mamlakat ichida 26-o'ringa qo'ydi.



Malayziyaning bunday tez sur'atlarda rivojlanishining sababi har hil sayyohlik kompaniyalarini olib borishidir. 1990-yilda Malayziya "Maftunkor Malayziya: Festivallar yili" deb nomlangan sayyohlik kompaniyasini boshladi, bu muvaffaqiyatli deb topildi va 7,4 million sayyohni qabul qildi. Besh yil o'tib, 1994-yilda Malayziya "Hayajonli Malayziya. Tabiiyki, ko'proq" deb nomlangan yana bir kompaniyani boshladi, u 10,22 million sayyohni qabul qildi. 2007-yilda Malayziya "Malayziya - Haqiqiy Osiyo" deb nomlangan eng mashhur sayyohlik kompaniyasini boshladi. Kompaniya Malayziya mustaqilligining 50 yilligiga bag'ishlandi va keng targ'ib qilindi. Bu kutilganidan oshib ketdi va 20,97 million sayyohni jalb etgan holda katta muvaffaqiyatga erishdi [4].

Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi turizm sanoati so'nggi yarim asrda tashkiliy va texnik jihatdan ancha rivojlandi. Turizm xizmatlarini sotishning yakuniy bahosi va buning natijasida tarmoqdan olinadigan daromad darajasi ko'p jihatdan turizm obyektlarini, umuman, sohani tashkil etish va boshqarishning samaradorligi, mukammalligi bilan belgilanishini hisobga olib, sayyohlik xizmatlarida zamonaviy texnologiyalar, elektron tijoratning turli vositalaridan foydalanish, zamonaviy, qulay kommunikatsiyalardan foydalanish imkoniyatlari va boshqalar, turizm sohasida yirik xalqaro sayyohlik kompaniyalarining roli keskin oshdi.

Turizm xizmatlari rivojlanishini Yevropa davlatlari misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, Fransiya, Italiya, Turkiya har doimgidek oldingi o'rinlarni egallab kelmoqda.

2023-yilda Fransiya 100 million xorijiy sayyoh tashrif buyurgan va bu dunyodagi eng ko'p tashrif buyuradigan davlatga aylandi.

Fransiyada turistik mahsulot quyidagi yo'nalishlarda sotiladi: "sohil" (plyaj turizmi), "tog'lar" (qishki turizm), "tabiat" (ekologik turizm), "madaniyat va meros" (ekskursiya turizmi), "Fransiya shaharlari" (kognitiv turizm), "yashash san'ati" (vinochilik va restoran turizmi), diniy turizm va boshqalar. Shuningdek, Fransiyada biznes turizmi, yoshlar turizmi va imkoniyati cheklangan kishilar uchun ham turizm rivojlangan [5].

Fransiyada YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan 45 ta obyekt mavjud bo'lib, ularga yuqori madaniy ahamiyatga ega bo'lgan shaharlar yoki joylar (Parij birinchi o'rinda turadi, shuningdek, Luara vodiysi, Tuluza, Strasburg, Bordo, Lion va boshqalar), plyajlar va dengiz bo'yidagi kurortlar, tog'-chang'i kurortlari, shuningdek, ko'pchilik o'zining go'zalligi va osoyishtaligi bilan zavqlanadigan qishloq hududlari (yashil turizm) kiradi. Fransiyada madaniy qiziqish uyg'otadigan ko'plab shaharlar mavjud, ularning ba'zilari Fransiya Madaniyat vazirligi tomonidan "San'at va tarix shaharlari" deb tasniflangan. Fransiyaning barcha yirik shaharlari tashrif buyurishga arziydi, chunki ularning barchasi madaniy va tarixiy atributlarga ega.

Italiyada turizm mamlakatning eng yirik iqtisodiy tarmoqlaridan biridir. Italiya Statistika Agentligi (ISTAT) ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda mamlakat 65 million chet ellik mehmon bilan dunyoda 5-o'rinni egalladi, bu ko'rsatkich 220,7 million xorijiy tashrif va umumiy 432,6 millionga teng. Italiya Bankining 2018-yil uchun hisob-kitoblariga ko'ra, turizm sektori milliy YalMning 5% dan ko'prog'ini bevosita, (bilvosita ishlab chiqarilgan YalMni hisobga olgan holda 13%) va bandlikning 6% dan ko'prog'ini tashkil qiladi [6].

Italiyada madaniy turizm, shuningdek, sog'lomlashtirish turizmi (termal vannalar va muolajalar) va biznes turizmi rivojlangan. Madaniy turizmdan tashqari tog' turizmi, ko'l turizmi, agroturizm yoki enogastronomik yo'nalishlar (yunoncha eno -vino, gastro – oshqozon) keng rivojlangan, ya'ni vino zavodlariga tashrif buyurish, (vino degustatsiyasi) vinolar va mahalliy taomlarni tatib ko'rish yo'nalishlarini taklif qiladi. Italiyada, shuningdek, shopping (xarid qilish) turizmi yo'nalishi ham ancha rivojlangan. Italiya modasi uzoq an'anaga ega. Turistlarni kiyim-kechak, charm buyumlar, kosmetika va parfyumeriya do'konlari eng ko'p jalb qiladi va turizmning ushbu turi bo'yicha Italiyaning eng ko'p tashrif buyuradigan shaharlari – Milan, Florensiya, Rim, Venetsiya va Turindir.

Yana bir muhim hodisa sifatida Turkiya turizm sanoatining rivojlanishida bir qator o'ziga xosliklarini sanab o'tishimiz mumkin.

Avvalo, mamlakatda tarixiy-madaniy obidalar ko'p bo'lishiga qaramasdan, dastlab asosiy e'tibor dengiz sohillari va kurortlarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu to'rt dengiz bilan o'ralgan davlat uchun juda to'g'ri yo'l edi.

Ikkinchidan, investorlarga katta yengilliklar yaratib berildi. Masalan, ayrim hududlarda yer ijarasi bepul qilib qo'yildi; qurilish uchun kam foizli kreditlar ajratildi; suv, elektr va gazga imtiyozli narxlar belgilandi; ular qator soliq va to'lovlardan ozod etildi.

Uchinchidan, har qanday biznesning kengayishida ulkan ahamiyatga ega bo'lgan reklama uchun katta mablag' ajratildi. Hozirgi kunda ham Anqara xorijda o'z turistik brendining reklamasi uchun katta mablag' sarflaydi.

Turkiya mehmonxonalari deganda ko'pchilikning ko'z oldiga birinchi bo'lib "All inclusive" tizimi keladi. All inclusive – mehmonxonalarda ko'rsatiladigan xizmatlar mujmuasidir. U mehmonxonada yashash bilan birga bepul taom, ichimlik va boshqa turdagi tekin xizmatlarni nazarda tutadi.

Turkiyada bu tizim o'tgan asrning 80-yillarida joriy etildi. Dastlab u germaniyalik turistlar orasida keng targ'ib qilingan, keyinchalik esa butun sektorga joriy etildi. "All inclusive" allaqachon turk turizmining "tashrif qog'ozi"ga aylangan. Hozirda mamlakatning 80 foizdan ziyod mehmonxonalari bu tizim yo'lga qo'yilgan.

Uzoq yillir davomida amalga oshirilgan va hozir ham to'xtovsiz davom etayotgan islohotlar natijasida bugungi kunda turizm iqtisodiyotining muhim va serdaromad yo'nalishiga aylandi. Turkiya turistlar tashrifi



bo'yicha dunyoda oltinchi va undan olinadigan daromad bo'yicha 7-o'rinda turadi. Masalan, ushbu soha yiliga davlatga o'tacha 30 mlrd dollardan ortiq daromad keltiradi.

Bundan tashqari, turizm millionlab insonlarni ish bilan ta'minlashga yordam beradi. Masalan, mamlakatning asosiy kurort shaharlaridan biri bo'lgan Antalyada 80-yillarda 750 ming kishi yashagan bo'lsa, hozirda doimiy ravishda bu yerda 2,5 mln odam istiqomat qiladi. Butun dunyo turizm va sayohat kengashi ma'lumotlariga ko'ra, Turkiyada turistik sektorda doimiy asosda 600 ming kishi faoliyat yuritadi. Unga yondosh sohalar bilan qo'shib hisoblaganda ularning soni 2 mlndan oshadi.

Turkiya Statistika instituti (TUIK) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning ikkinchi choragida turizmdan tushgan daromad o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,8 foiz ortib, 14 million 875 million 518 ming dollarga yetdi. Turizm daromadining 15,9 foizi xorijda yashayotgan va Turkiyaga tashrif buyurgan turk fuqarolaridan olingan. Paketli turlarga sarflangan xarajatlar 4,5 milliard dollarga yetgan [7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, dunyoda turizmni rivojlantirishning asosiy tendensiyalaridan biri bu ommaviy turizmdan barqaror turizmga o'tishdir. Ushbu barqaror turizm atrof-muhit, mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olishni va ularni sanoatni rivojlantirish jarayoniga yanada faolroq jalb qilishni nazarda tutadi. Shuningdek, mazkur yo'nalish tabiiy resurslarni saqlash, ekologik toza transport turlarini rivojlantirish, mahalliy aholining iqtisodiy foyda olishlari uchun keng sharoit yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, turizm oldida turgan muammolarni tadqiqotlar yo'nalishidan kelib chiqib atroflicha har tomonlama ko'rib chiqish kerak. Bunda barqaror turizmni rivojlantirish, turizm mahsulotlari tarkibini diversifikatsiya qilish va yangi texnologiyalarni qo'llash ushbu muammolarni hal etishda yordam beradi va sohani rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi deb hisoblaymiz. Oxir oqibatda, turizm mamlakat va mintaqalar barqaror iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, madaniy merosni saqlash va tabiatni muhofaza qilish kabi vosita elementiga aylanishi kerak.

Har qanday hududga sarmoya jalb etishning asosiy ko'rsatkichi bo'lib hududning iqtisodiy rivojlanish salohiyati hisoblanadi. O'tgan 5 yillik tahliliga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2019-yil holatiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari quyidagilar bo'lgan: sanoat (YaHM tarkibidagi ulushi – 32,7%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (15,2%), qurilish (7,5 foiz), savdo, turarjoy va oziq-ovqat xizmatlari (8 foiz), transport va saqlash, axborot va aloqa (7,6 foiz) va boshqa (shu jumladan, turizm) xizmat ko'rsatish sohalar (29 foiz) [8]. Bu holat, bizningcha, respublikaning yirik sanoat tarmoqlari: savdo va umumiy ovqatlanish, transport va aloqa, kommunal, moliya va boshqalarning hissasi bilan bog'liq bo'lib, eng muhimi, avvallari, asosan, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar asta-sekin xususiy bozor xarakteriga ega bo'ldi [9]. Bu, o'z navbatida, hududda turizm soha barqarorlashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib jahon mamlakatlari turizm industriyasi tajribasi elementlaridan foydalangan holda quyidagi takliflarni keltiramiz, shu jumladan:

- Malayziya davlati tajribasidan foydalangan holda mintaqada sayyohlik kompaniyalarini olib borishni faollashtirishning maqsadga muvofiqligi. Jumladan, Mo'ynoqda har yili o'tkazilib kelayotgan "Stixiya" festivali kabi boshqacha muqobil tadbirlarni tashkil etish zarur;

- Fransiya mamlakati tajribasidagi turistik mahsulotlar singari "sohil" (plyaj turizmi), "tog'lar" (qishki turizm), "tabiat" (ekologik turizm), "madaniyat va meros" (ekskursiya turizmi), "O'zbekiston hududlari shaharlari" (kognitiv turizm), "yashash san'ati" (milliy madaniy qadriyatlar turizmi) va boshqalarni Qoraqalpog'istonda jadal rivojlantirish zarur;

- shuningdek, Turkiya va boshqa mamlakatlar tajribalari, turizm xususiyatlaridan unumli foydalanish. Bunda, birinchi navbatda, xorijda o'z turistlar brendining reklamasini targ'ib qilish hamda O'zbekiston va uning hududlariga tashrif buyurgan sayyohlarga yuqori sifatdagi zamonaviy mehmonxona xizmatlarini ko'rsatish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.04.2023-yil "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-son. lex.uz
2. Malayziya Turizm va Madaniyat vazirligi sayti [elektron resurs] - Kirish rejimi: <http://www.motac.gov.my>
3. Mohd Ayob, Norizawati, Masron, Tarmiji (2014). Othuman Mydin, M.A.; Marzuki, A. (eds.). "Issues of Safety and Security: New Challenging to Malaysia Tourism Industry". SHS Web of Conferences. 12: 01083. doi:10.1051/shs-conf/20141201083. ISSN 2261-2424.
4. "Tourism Malaysia Corporate Site" www.tourism.gov.my. Retrieved 29 May 2024.
5. Turizmni-rivojlantirishning-xorijiy-tajribasi. (pdf) international scientific and practical conference "innovative approaches in study of the language, literature, translation, tourism and cultural heritage on the silk road", may 3-4, 2024.
6. Il peso del turismo in Italia, le caratteristiche della domanda e la capacità ricettiva (итал.). Banca d'Italia (11 dekabr 2018). Kirish sanasi: 2022-yil 23-iyun. Arxivlangan 19-yanvar, 2022-yil.



7. "World Tourism Barometer" (PDF). World Tourism Organization. May 2024. p. 19. Retrieved 5 July 2024.
8. Jumagulovich M. A. et al. Forecast Guidelines for Investments in The Republic of KARAKALPAKSTAN //International Journal of Religion. - 2024. - T. 5. - №. 2. - C. 493-501.
9. Musagaliev A.J. and etc. General Analysis of Services in the Economic Development of Regions in Uzbekistan / Asian Journal of Advances in Research. Volume 17. Issue 4. 2022. - Pages: 221-226.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

